

BUYRUQ

2024 y. «16» aprel

№ 91

“Asosiy yong‘in-texnik ko‘rik o‘tkazish” to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Temir yo‘l transport to‘g‘risida”gi Qonunining 22-moddasi va “O‘TY” AJ boshqaruvi raisi o‘rinbosari A.A.Kamiljanovning 09.04.2024 yildagi №359-sonli telegrammasi ijrosini ta‘minlash xamda, “O‘zbekiston” lokomotiv deposida yong‘in nazoratini amalga oshirish va boshqa yong‘inlar bilan bog‘liq favqulotda holatlarni oldini olish, yong‘in xavfsizligini yanada mustaxkamlash maqsadida;

BUYURAMAN:

1. “O‘zbekiston” lokomotiv deposida yong‘in nazoratini amalga oshirish va boshqa yong‘inlar bilan bog‘liq favqulotda holatlarni oldini olish, yong‘in xavfsizligini yanada mustaxkamlash maqsadida quyidagi tarkibda komissiya tuzilsin:

Komissiya raisi:	Bosh muxandis	Q.A.Xodiyev
Komissiya a‘zolari:	Depo boshlig‘i o‘rinbosarlari	A.A.Boltabayev
	Bosh energetik	Yo.O.Xasanov
	Bosh mexanik	X.B.Ramazonov
	Mehnat muhofazasi bo‘limi boshlig‘i	S.B.Sagdiyev
		X.I.Muxamedov

2. **Komissiya a‘zolariga:**

- Bo‘lim, sex raxbarlari va mashinist murabbiylarini jalb etgan xolda 2024 yil 15 apreldan 31 mayga qadar barcha filial, sex, bo‘lim va xarakatdagi sostavlarda yong‘in-texnik ko‘rik o‘tkazilsin.
- Yong‘inga qarshi tekshiruvlarda asosiy e‘tiborni yong‘inga qarshi suv ta‘minoti meyor va qoidalar talablarga mosligi, suv quvurlari, yong‘in o‘chirishga mo‘ljallangan yer osti suv olgichlar (gidrant), suv xovuzlari, ichki yong‘in o‘chirish jo‘mraklari, suv manbalarini ko‘rsatgichlar bilan ta‘minlanganligi, elektr qurilmalarni o‘rnatish va ulardan foydalanish, yashindan himoya qurilmalari, yong‘in yoki favqulotda hodisalar sodir bo‘lganda insonlarni va moddiy boyliklarni qutqarish rejaları mavjudligi, omborlarning yong‘inga qarshi meyor va qoida talablariga mosligi, oraliqlarga rioya etilishi, sexlardagi yong‘in o‘chirish vositalari va ularning zaxirasi mavjudligi, isitish moslamalari va ularning havo almashtirish, avtomatlashtirish tizimlari, sexlar, omborxonalar, yoqilg‘i saqlash va quyish shahobchalari, omborlari, ma‘muriy binolari, hududlarning yong‘inga qarshi tozaligi va uskunalarning yaroqliligi, oldingi tavsiya qilingan yong‘inga qarshi tadbirlar va mehnat muhofazasi qoida talablarining bajarilishi alohida e‘tiborga olinsin.
- Iсталgan vaqtda ma‘sul shaxslar bilan birgalikda tungi vaqtda odamlar ommaviy joylarda bo‘ladigan navbatchi xodimlar yong‘in sodir bo‘lganda xarakat qilishlari tekshirilib xamda yong‘in vaqtidagi xarakatlarni o‘rgatish yuzasidan o‘quv amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilsin.
- Yong‘in kelib chiqishiga, tarqalishiga olib keluvchi yoki uni bartaraf etishni qiyinlashtiruvchi yoki odamlarning xavfsizligi talablarining buzilishi aniqlangan xollarda, agar ular binoning yoki umuman ishlab chiqarishning ishini to‘xtatishga olib kelmasi, sexlarining ishini, aloxida xonalardan, asbob uskunalaridan va boshqa agregatlardan

foydalanishni, ayrim yong'in xavfiga qarshi ishlarni olib borishni belgilangan tartib qisman yoki butunlay to'xtatib qo'yilsin.

- Yong'in xavfsizligi qoida talablarini buzgan va bajarmagan, yong'in xavfsizligini belgilovchi meyoriy xujjatlariga rioya qilmagan ishchi xodimlarga nisbatan choralar ko'rilsin.

3. Mehnat muhofazasi bolimi boshlig'i X.I.Muxamedovga:


- Bajarylган ishlar natijalari bo'yicha xisobot 2024 yil 06 iyun kuniga qadar Harbiylashtirilgan qo'riqlash boshqarmasiga taqdim etilsin.

4. Korxonada ish yuritish bo'limiga:

- Mazkur buyruq tegishli ishchi xodimlar bilan tanishtirilsin


5. Mazkur buyruqning ijrosi nazoratini o'z zimnamda qoldiraman.

“O‘zbekiston” lokomotiv
deposi boshlig‘i



E.G'.Omonqulov

Huquqshunos



Bajaruvchi: ТЧТБ - Muxamedov X.I.
Tel:42-874